



UO'K:61:577.1:378.126:371.3

Aliyor RAXMANOV,
Andijon davlat tibbiyot instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: sardorbek@gmail.com

Andijon davlat tibbiyot instituti professori, p.f.d A.Ismanova taqrizi asosida

IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING COMPUTER TECHNOLOGIES IN ONLINE ADAPTIVE LEARNING SYSTEMS

Annotation

This article explores the methodological aspects of applying computer technologies in online adaptive learning systems. The study analyzes adaptive learning approaches that consider students' individual abilities and knowledge levels. The results demonstrate that the integration of computer technologies enhances the effectiveness of the learning process, fosters independent learning skills, and supports the development of professional competencies. Furthermore, the article provides practical recommendations for the wider implementation of modern technologies in educational practice.

Key words: Adaptive learning, computer technologies, online education, methodology, professional competence, medical education.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОНЛАЙН АДАПТИВНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СИСТЕМАХ

Аннотация

В статье рассматриваются методические основы использования компьютерных технологий в онлайн адаптивных системах обучения. В ходе исследования проанализированы возможности адаптивного подхода, учитывающего индивидуальные способности и уровень знаний студентов. Полученные результаты показали, что использование компьютерных технологий способствует повышению эффективности образовательного процесса, развитию у студентов навыков самостоятельного обучения и формированию профессиональных компетенций. Кроме того, в статье предложены практические рекомендации по широкому внедрению современных технологий в педагогический процесс.

Ключевые слова: Адаптивное обучение, компьютерные технологии, онлайн образование, методика, профессиональная компетенция, медицинское образование.

TIBBIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA XALQ TABOBATINI INTEGRATSIYALASH ORQALI TIBBIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MODELI

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston tibbiy ta'lim muassasalari talabalarida tibbiy madaniyatni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari yoritilgan. Xalq tabobatini ta'lim jarayoniga integratsiyalash orqali talabalarda kasbiy, axloqiy va madaniy kompetensiyalar shakllanishi ta'kidlangan. Oliy ta'lim sifatining so'nggi statistik ko'rsatkichlari tahlil qilinib, xalqaro hamkorlik va raqamlashtirish jarayonlari asosida samarali model taklif etilgan.

Kalit so'zlar: Tibbiy madaniyat, xalq tabobati, integratsiya, ta'lim modeli, O'zbekiston, xalqaro hamkorlik.

Kirish. Tibbiy madaniyat jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiy bilim va ko'nikmalarni oshirish, bemor va tibbiyot xodimlari o'rtasida sog'liqni saqlash sohasida axloqiy, madaniy va tarbiyaviy jihatdan to'g'ri munosabatni qaror toptirishni o'z ichiga oladi. Hozirgi davrda xalq tabobati, ya'ni an'anaviy davolash usullari, tabiiy dorivor vositalar sog'liqni saqlash tizimida muhim qo'shimcha yo'nalish sifatida qaralmoqda. Uni zamonaviy tibbiyot bilan uyg'unlashtirish orqali talabalarda tibbiy madaniyatni rivojlantirish, aholiga samarali tibbiy xizmat ko'rsatadigan mutaxassislar tayyorlash va umumiy sog'liqni saqlash sifatini oshirish mumkin. O'zbekiston sharoitida xalq tabobatini tibbiy ta'lim jarayoniga izchil integratsiya qilish masalasi davlat darajasida ham qo'llab-quvvatlanmoqda. Xalq tabobatiga bo'lgan ehtiyoj, ayniqsa, surunkali kasalliklarni davolash va profilaktikada yuqori. Shu bilan birga, sohada malaka, javobgarlik, xavfsizlik va nazorat bilan bog'liq muammolar ham mavjud. Bu masalalarni tizimli hal etish maqsadida so'ngi yillarda qator muhim qaror va farmonlar qabul qilindi. Xususan, "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini

tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori orqali xalq tabobati xizmatlari qo'shimcha tibbiy yordam sifatida e'tirof etildi, litsenziyalash tartibi, huquqiy maqomi belgilandi, zamonaviy tibbiyot bilan integratsiya qilish va yagona ma'lumotlar bazasini yaratish vazifalari yuklatildi. 2020 yilda PQ-4668-sonli qaror bilan Respublika xalq tabobati ilmiy-amaliy markazi hamda hududiy markazlar tashkil qilindi, xalq tabobati usullari sog'liqni saqlash tizimiga integratsiya qilindi, shuningdek, o'quv reja va dasturlar ishlab chiqilib, talabalar uchun maxsus yo'nalishlar ochildi. Davlat tibbiyot muassasalarida xalq tabobati xonalari va fitobarlar faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Bu tashabbuslar talabalarda xalq tabobati asoslarini o'rganish, amaliyotda qo'llash va uni ilmiy asoslash imkonini beradi.

Xalq tabobatini tibbiy ta'limga integratsiyalashning samarali yo'llari mavjud. Avvalo, o'quv rejalarga xalq tabobati bo'yicha maxsus kurs va modullarni kiritish, klinik amaliyotlarda xalq tabobati usullarini qo'llash, talabalarga tarixiy an'analar va mahalliy merosni o'rgatish muhim. Shuningdek, kafedralar tashkil etish, ilmiy-tadqiqotlar olib

borish, talabalarning laboratoriya va klinik amaliyotlarda xalq tabobati usullaridan foydalanishini yo'lga qo'yish zarur. Bu jarayonda xavfsizlik va samaradorlikni klinik sinovlar orqali baholash, huquqiy va etik meyorlarga qat'iy amal qilish, sanitariya va gigiyena talablariga rioya etish asosiy shart hisoblanadi.

Metodik jihatdan xalq tabobatini o'qitishning bir necha yo'nalishlari bor: modul asosida maxsus kurslarni joriy etish, laboratoriyalar tashkil qilish, klinik markazlarda amaliyotlar o'tkazish, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini yo'naltirish, o'qituvchilar malakasini oshirish, nazorat va baholash tizimini takomillashtirish. Shu bilan birga, mavjud qaror va farmonlar asosida xalq tabobati yo'nalishida o'quv jarayonini huquqiy tartibga solish, litsenziyalash va javobgarlikni kuchaytirish, xalq tabobati sohasida xavfsizlikni ta'minlash zarur.

Xalq tabobatini talabalarga o'rgatishda madaniy va pedagogik komponent ham alohida o'rin tutadi. Talabalarda xalq tabobatiga nisbatan hurmat, an'anaviy shifobaxsh vositalarga ehtiyotkorona yondashish, mahalliy madaniy merosni qadrlash ko'nikmalari shakllanishi kerak. Amaliy stajirovkalar va mahalla bilan hamkorlik orqali bu jarayon yanada mustahkamlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xalq tabobati va uning zamonaviy tibbiyot bilan integratsiyalashuvi masalasi xalqaro miqyosda keng o'rganilgan bo'lib, ko'plab olimlar tomonidan tibbiy ta'limda hamda sog'liqni saqlash amaliyotida uning o'rni e'tirof etiladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO)ning 2014–2023 yillarga mo'ljallangan "Traditional Medicine Strategy" hujjatida an'anaviy tibbiyot va xalq tabobatining sog'liqni saqlash tizimiga integratsiyasi, ilmiy asoslarini mustahkamlash, xavfsiz va samarali qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish zarurligi ta'kidlangan. Shu bilan birga, 2025 yildan boshlab WHO yangi global strategiyada xalq tabobatini raqamlashtirish va klinik sinovlar orqali tasdiqlash masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda.

Rossiya, Xitoy va Hindiston tajribasida xalq tabobatini tibbiyot ta'limiga integratsiyalash bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Xitoyda "Traditional Chinese Medicine" (TCM) oliy ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi va fitoterapiya, akupunktura, massaj terapiyasi kabi usullar talabalarga nazariy va amaliy jihatdan o'rgatiladi. Hindistonda esa "AYUSH" dasturi orqali ajurveda, yoga, unani, siddha va homeopatiya tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida alohida yo'nalish sifatida rivojlantirilmoqda. Bu tajribalar xalq tabobatini davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlash va tibbiyot kadrlarini tayyorlash jarayoniga integratsiyalashning samarali mexanizmlarini ko'rsatadi.

O'zbekistonda ham xalq tabobatini rivojlantirish va uni tibbiy ta'limga tabiiq etish so'nggi yillarda davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentning 2020 yil 10 apreldagi PQ–4668-son qarorida Respublika xalq tabobati ilmiy-amaliy markazi va hududiy markazlar tashkil etilishi belgilandi. Ushbu qaror asosida xalq tabobatining ilmiy asoslarini mustahkamlash, dorivor o'simliklardan foydalanish va talabalarga tegishli bilimlarni berish mexanizmlari ishlab chiqildi. Shuningdek, 2022 yilda "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror orqali xalq tabobati xizmatlari litsenziyalandi, amaliyotchi mutaxassislarning faoliyati huquqiy jihatdan tartibga solindi, ularning zamonaviy tibbiyot bilan hamkorlikda ishlash imkoniyatlari kengaytirildi.

Mahalliy adabiyotlarda ham bu masala qator olimlar tomonidan yoritilgan. Jumladan, A. Tursunov (2021) tadqiqotlarida xalq tabobatining farmakologik asoslari va dorivor o'simliklarning tibbiy ta'limdagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, S. Isloмова (2022) maqolalarida tibbiyot talabalari uchun xalq tabobati asoslari bo'yicha maxsus

kurslarni joriy etishning metodik imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Andijon, Buxoro va Samarqand tibbiyot institutlarida olib borilgan ilmiy-amaliy tajribalar xalq tabobatini o'quv jarayoniga kiritish talabalar bilimini kengaytirishi, tibbiy madaniyatni oshirishi va milliy qadriyatlariga hurmatni kuchaytirishini ko'rsatdi.

Umuman, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalq tabobatini zamonaviy tibbiy ta'limga integratsiyalash xalqaro tajribada keng qo'llanilib, O'zbekistonda ham normativ-huquqiy baza yaratilgan. Biroq, bu jarayonni metodik jihatdan takomillashtirish, ilmiy asoslash va xalqaro standartlarga mos holda rivojlantirish hali ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shu sababli, xalq tabobatini tibbiy ta'limda keng qo'llash orqali talabalar tibbiy madaniyatini rivojlantirish ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan yondashuvni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi tibbiy ta'lim muassasalarida talabalarida xalq tabobatining integrativ imkoniyatlari asosida tibbiy madaniyatni rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda o'rganish va samarali metodikani ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'lib, u zamonaviy pedagogika va tibbiyot nazariyasi tamoyillari bilan birgalikda davlatning so'nggi yillardagi sog'liqni saqlash va ta'lim tizimiga oid qaror va farmonlariga tayanadi. Jumladan, 2022-yil 18-maydagi PQ–254-son qarorida xalq tabobatini rivojlantirish va uni bosqichma-bosqich sog'liqni saqlash tizimiga integratsiya qilish chora-tadbirlari belgilangan bo'lsa, 2023-yil 5-yanvardagi PF–11-son Farmonida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish va inson kapitalini rivojlantirish strategiyasi e'lon qilindi. Shuningdek, 2023-yil 11-iyuldagi PQ–230-son qarori orqali tibbiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish vazifalari qo'yildi. Bu hujjatlar tadqiqot metodologiyasining meyoriy-huquqiy asosini tashkil etadi va tibbiy madaniyatni rivojlantirish masalalarini davlat siyosati darajasida ustuvor yo'nalish sifatida belgilab beradi.

Tadqiqotning metodologik asosi integrativ, shaxsga yo'naltirilgan, innovatsion-pedagogik, madaniy-ta'limiy hamda antropologik yondashuvlarga tayanadi. Integrativ yondashuv xalq tabobati an'analari va zamonaviy tibbiyot yutuqlarini uyg'unlashtirish orqali talabalarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan bo'lsa, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ularning individual qiziqishlari va bilim saviyasini hisobga olib, kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishni nazarda tutadi. Innovatsion-pedagogik yondashuv zamonaviy ta'lim texnologiyalarini – interfaol metodlarni, keys-stadi, muammoli ta'lim, simulyatsion treninlar, raqamli platformalar va virtual laboratoriyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Madaniy-ta'limiy yondashuv orqali esa milliy qadriyatlar va xalq tabobatining ijobiy jihatlari talabalarning tibbiy madaniyatini shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida o'rganiladi. Shu bilan birga, antropologik va sotsiologik yondashuvlar yordamida talabalar ongida xalq tabobatiga nisbatan shakllanayotgan ijtimoiy-madaniy qarashlar tahlil qilinadi.

Tadqiqot jarayonida nazariy, empirik, eksperimental, statistik va modellashtirish metodlaridan kompleks foydalanildi. Nazariy metodlar yordamida xalq tabobati va tibbiy madaniyat bo'yicha ilmiy manbalar, xorijiy tajribalar hamda milliy qonunchilik hujjatlari tahlil qilindi. Empirik metodlar doirasida tibbiy ta'lim muassasalarida kuzatuvlar olib borildi, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida so'rovnoma, intervyu va diagnostik testlar tashkil etildi. Eksperimental metod yordamida ishlab chiqilgan metodika tajriba guruhlarida qo'llanildi va natijalar nazorat guruhi ko'rsatkichlari bilan taqqoslandi. Statistik metodlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar matematik qayta ishlashdan o'tkazilib, o'rtacha ko'rsatkichlar, dinamik o'zgarishlar va samaradorlik darajasi grafik hamda

jadval ko'inishida ifodalandi. Modellashtirish va prognozlash metodlari orqali esa tibbiy madaniyatni rivojlantirish jarayonining nazariy modeli ishlab chiqildi va uning amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari aniqlab berildi.

Metodologiya bosqichma-bosqich amalga oshirildi: dastlab ilmiy manbalar va meyoriy-huquqiy hujjatlar chuqur tahlil qilindi, keyingi bosqichda talabalar bilim va ko'nikmalari diagnostika qilindi, so'ng ishlab chiqilgan metodika amaliyotga tatbiq etilib, nazorat va tajriba guruhlar ko'rsatkichlari taqqoslandi. Yakuniy bosqichda esa natijalar umumlashtirildi, ilmiy xulosalar ishlab chiqildi va ta'lim jarayoniga amaliy tavsiyalar berildi. Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi xalq tabobatining ijobiy tajribalarini zamonaviy tibbiy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali talabalar tibbiy madaniyatini rivojlantirish, ularni kasbiy faoliyatda milliy qadriyatlar va zamonaviy ilmiy yondashuvlarga tayangan holda ishlashga tayyorlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar ilmiy izlanishning nazariy va amaliy asoslarini belgilab beradi hamda tibbiy ta'lim muassasalarida talabalar xalq tabobatining integrativ imkoniyatlari asosida tibbiy madaniyatni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Avvalo, nazariy-uslubiy yondashuv asosida xalq tabobati va zamonaviy tibbiyot integratsiyasiga oid ilmiy adabiyotlar, qonunchilik hujjatlari, Prezident farmonlari va qarorlari tahlil qilindi, xorijiy tajribalar bilan taqqoslandi. Ushbu bosqichda nazariy tahlil, kontent-tahlil va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning empirik qismida tibbiy ta'lim muassasalarida pedagogik kuzatuvlar o'tkazildi. Bu orqali talabalar tibbiy madaniyat darajasi, xalq tabobatiga nisbatan munosabatlari va kasbiy faoliyatga tayyorgarligi baholandi. Shuningdek, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida so'rovnomalar, suhbat va intervyu metodlari qo'llanilib, ularning xalq tabobati bo'yicha bilim, qarash va ehtiyojlari aniqlab chiqildi.

Eksperimental-tajriba usuli yordamida ishlab chiqilgan metodika tajriba guruhlarida joriy qilindi, nazorat guruhida esa an'anaviy o'qitish jarayoni davom ettirildi. Tajriba natijalarini taqqoslash orqali yangi metodikaning samaradorlik darajasi o'lchandi. Shu jarayonda diagnostik testlar, keys-stadi va interfaol metodlardan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, natijalar sonli ko'rsatkichlar asosida tahlil qilindi. O'rtacha qiymatlar, dispersiya, foizlik nisbatlar va dinamik o'zgarishlar hisoblab chiqildi. Natijalar jadval, grafik va diagrammalar orqali tasvirlandi.

Bundan tashqari, modellashtirish usuli orqali tibbiy madaniyatni rivojlantirish jarayonining nazariy modeli ishlab chiqildi va prognozlash usuli yordamida xalq tabobatining ta'lim jarayoniga integratsiyasi bo'yicha istiqbolli yo'nalishlar belgilab berildi.

Shu tarzda, tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy o'rganish, pedagogik kuzatuv, so'rovnomalar, suhbat, eksperiment, diagnostika, matematik-statistik tahlil va modellashtirish kabi metodlarning kompleks qo'llanilishi ta'minlandi. Bu usullar tibbiy ta'lim muassasalarida talabalarida tibbiy madaniyatni rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini chuqur yoritishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida xalq tabobatining integrativ imkoniyatlari asosida tibbiy ta'lim muassasalarida talabalarida tibbiy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan metodika ishlab chiqildi va uning samaradorligi tajriba-sinov asosida tekshirildi. Dastlabki diagnostika bosqichida talabalar tibbiy madaniyatining shakllanish darajasi yetarli emasligi, ularning ko'pchiligida xalq tabobatiga oid bilimlar yuzaki bo'lgani, zamonaviy tibbiy yondashuv bilan uyg'unlashtirilmaganligi aniqlandi. So'rovnomalar natijalari talabalar orasida xalq tabobati usullariga qiziqish mavjudligini,

biroq ularning ilmiy asoslangan manbalarga tayanmaganini ko'rsatdi.

Eksperimental bosqichda ishlab chiqilgan metodika tajriba guruhida tatbiq etildi. O'quv mashg'ulotlariga xalq tabobatining ilmiy asoslari, milliy qadriyatlardagi sog'lomlashtiruvchi an'analar, shuningdek, ularni zamonaviy tibbiyot bilan uyg'unlashtirish elementlari kiritildi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar – keys-stadi, interfaol munozara, simulyatsion mashqlar, virtual laboratoriya mashg'ulotlari – qo'llanilishi talabalar faoliyatini jonlantirdi, mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini oshirdi.

Tajriba yakunida o'tkazilgan qayta diagnostika testlari va so'rovnomalar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida tibbiy madaniyat ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshdi. Jumladan, xalq tabobatiga oid nazariy bilimlar o'rtacha 35–40% ga, amaliy ko'nikmalar 25–30% ga, tibbiy madaniyatning axloqiy-psixologik komponentlari esa 20% dan ortiq darajada rivojlandi. Nazorat guruhida esa faqat 5–7% o'sish qayd etildi, bu metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi.

Statistik tahlil natijalariga ko'ra, eksperimental metodika talabalarda nafaqat xalq tabobati haqidagi bilimlarni chuqurlashtirdi, balki ularni zamonaviy tibbiy qarashlar bilan uyg'unlashtirishga, kasbiy kompetensiyalarni mustahkamlashga xizmat qildi. Bundan tashqari, talabalar xalq tabobatini milliy meros sifatida qabul qilish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va kasbiy faoliyatda qo'llashga bo'lgan ijobiy munosabatlarini bildirganlar.

Shu bois, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xalq tabobatining integrativ imkoniyatlarini ta'lim jarayoniga kiritish tibbiy madaniyatni rivojlantirishning samarali metodlaridan biri hisoblanadi. Bu yondashuv nafaqat talabalarining nazariy bilimlarini kengaytiradi, balki ularning kasbiy tayyorgarligini, milliy qadriyatlarga hurmatini va sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi faolligini oshiradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xalq tabobatini tibbiy ta'lim jarayoniga izchil integratsiyalash talabalarda tibbiy madaniyatni shakllantirishning samarali metodlaridan biri hisoblanadi. Xalq tabobati usullarini zamonaviy tibbiyot yondashuvlari bilan uyg'unlashtirish nafaqat talabalar bilimini chuqurlashtiradi, balki ularning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlaydi, milliy qadriyatlarga hurmat va sog'lom turmush tarziga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Tajriba-sinov jarayonida xalq tabobati elementlari asosida ishlab chiqilgan metodika samarali ekanligi isbotlandi: nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va axloqiy-psixologik komponentlarning sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Tadqiqot tahlillari shuni ham ko'rsatdiki, xalq tabobatini tibbiy ta'limga joriy etishda xavfsizlik, huquqiy meyorlarga amal qilish, klinik sinovlar orqali samaradorlikni tekshirish va o'qituvchilar malakasini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, xalqaro tajribadan samarali foydalanish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash va davlat darajasida qo'llab-quvvatlash ushbu jarayonning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlaydi.

Takliflar:

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalariga xalq tabobati bo'yicha maxsus kurs va modullarni joriy etish.

Klinik amaliyotlarda xalq tabobati usullarini nazorat ostida qo'llash va ularni zamonaviy tibbiy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish.

Xalq tabobati bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarni kengaytirish, laboratoriya va klinik markazlarda tajribalar o'tkazish, ilmiy asoslangan natijalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish.

O'qituvchilar va amaliyotchi mutaxassislar uchun xalq tabobati va integrativ tibbiyot bo'yicha malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish.

Talabalarda milliy qadriyatlarga hurmat, xalq tabobati merosini qadrlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga yo'naltirilgan pedagogik va madaniy tadbirlarni kuchaytirish.

Davlat darajasida qabul qilingan qaror va farmonlar asosida xalq tabobati yo'nalishida huquqiy tartibga solish, litsenziyalash va xavfsizlikni yanada mustahkamlash.

Shunday qilib, xalq tabobatini zamonaviy tibbiy ta'lim tizimiga uyg'unlashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan metodika nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki kelajakda yuqori kasbiy va madaniy salohiyatga ega tibbiyot mutaxassislarini tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. World Health Organization. (2013). WHO traditional medicine strategy: 2014–2023. Geneva: WHO. <https://www.who.int/publications-detail-redirect/9789241506096>
2. World Health Organization. (2024). Traditional, Complementary and Integrative Medicine (TCI): Global strategies. WHO. <https://www.who.int/teams/integrated-health-services/traditional-complementary-and-integrative-medicine/global-strategies>
3. Pan American Health Organization. (2024, October 29). PAHO concludes regional consultation on the WHO Traditional Medicine Strategy 2025–2034 draft. PAHO. <https://www.paho.org/en/news/29-10-2024-paho-concludes-regional-consultation-who-traditional-medicine-strategy-2025-2034>
4. Daaleman, T. P., Elder, N. C., & Strickland, J. C. (2018). Incorporation of integrative medicine education into undergraduate medical education: A longitudinal study. *Journal of Alternative and Complementary Medicine*, 24(11), 1034–1040. <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/29103413>
5. Choi, S.-H. (2009). WHO Traditional Medicine Strategy and activities: Standardization with evidence-based approaches. *Innovations in Acupuncture and Medicine*, 7(3), 157–165. [https://iam.biomedcentral.com/articles/10.1016/S2005-2901\(09\)60037-6](https://iam.biomedcentral.com/articles/10.1016/S2005-2901(09)60037-6)
6. González, M. J., Miranda-Massari, J. R., Mora, E. M., et al. (2000). Integrative medicine: A paradigm shift in medical education and practice. *Puerto Rico Health Sciences Journal*, 19(4), 389–392. <https://www.cellmedicine.com/publications/integrative-medicine-a-paradigm-shift-in-medical-education-and-practice>
7. Jumanazarov, X. S. (2024). Xalq tabobatida davolash usullarining mintaqaviy xususiyatlari. *FarDU Ilmiy Xabarları*, (2), 115–120. <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/4415>
8. Isaqova, O. A. (2024). Asab kasalliklarini xalq tabobati yo'li bilan davolash samaradorligi. *Reandpub ilmiy jurnali*, (3), 45–50. <https://maqola.reandpub.uz/11605>
9. Olimjonova, M., & Yuldasheva, L. S. (2024). Xalq tabobati sohasining rivojlanishi va uning istiqbollari. *International Conference on Education, Development and Humanities (ICEDH)*, 2(1), 210–215. <https://econferenceseries.com/index.php/icedh/article/view/4865>
10. Кобулова, М. А. (2024). Информационные технологии в медицинском образовании-как фактор повышения качества обучения. *AndMI Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalari*, 1(1), 434–437.
11. Ismanova, A. (2016). The Mechanisms of Influence on the Minds of Young People and Socio-Educational Prevention. *Eastern European Scientific Journal*, (3).
12. Ismanova, A. A. (2015). Educational and others technologies for the prevention of the struggle against religious extremism and terrorism. *Theoretical & Applied Science*, (11), 63–66.